

SAYYOH OLIMLAR ASARLARIDA XORAZM TAVSIFI

A. Qurbonov

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi.***Zahriddin Sohibov***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Xorazmning o'rta asr sayyoh olimlari, jumladan, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Battuta va al-Umariy asarlarida qanday tasvirlanganligi haqida so'z boradi. Maqola, shuningdek, Xorazmning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlari hamda uning ilmiy merosi haqida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu asarlarda sayyohlar Xorazmning boy tabiiy resurslari, savdo markazlari, obodonligi va xalqning turmush tarzi haqida ta'riflar berishgan. Bu meros o'zbek xalqining madaniy va tarixiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, sayyoh olimlar, Ibn Battuta, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy, Al-Umariy, O'rta asrlar, Movarounnahr, madaniy meros.

Istiqlol tufayli biz milliy o'zligimizni anglash, boy ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ko'plab buyuk allomalarimizning tavallud sanalari, shuningdek, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi qadimiy shaharlarimizning tashkil topganligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Noyob merosimizning hali o'rganilmagan qirralarini tadqiq qilish ishlari keng ko'lamda izchillik bilan davom ettirilmogda. Ma'lumki, jonajon yurtimizdagi har bir qishloq va shahar o'zining boy tarixiga egadir. Ajdodlarimizning o'tmishini chuqur, xolisona va izchil o'rganish Vatan tarixining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, o'tmishni teran bilmasdan turib, haqiqiy ma'nodagi bugungi va kelajak hayotni ravshan tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta.

Shu o'rinda, XIV asr boshlarida O'rta Osiyoga sayohat qilib, bu yerdagi xalqlar va shaharlar hayotiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan "Sayohatnoma" asarini yaratgan marokashlik arab sayyohi, geograf va tarixchi Ibn Battutaning ijodini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shaxsiy taassurotlarga asoslangan va qiziqarli hikoya usulida yozilgan "Sayohatnoma"ning to'liq nomi — "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-asfar" bo'lib, ya'ni "Turli shahar va safarlardagi ajoyibotlar shohidi bo'lganlar uchun tuhfa" degan ma'noni anglatadi. Asarda Movarounnahr xalqlari, Urganch, Buxoro, Nasaf, Termiz, Samarqand kabi shaharlar hayotining boshqa manbalarda uchramaydigan usulda tasvirlanishi tahsinga sazovordir.

Marokashlik buyuk sayyoh Ibn Battutaning yoshlik yillari, Yaqin Sharq, Shimoliy va Sharqiy Afrikaga qilgan dastlabki sayohatlari uning kelgusidagi safarlari uchun

muhim asos bo'lib xizmat qildi. Ibn Battutaning to'liq ismi — Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Yusuf al-Lavatiy at-Tanjiydir. U lavat (ilovatin) degan barbar qabilasidan kelib chiqqan bo'lib, 1304 yili Tanjada tug'ilgan. Uning tug'ilgan yilini o'z so'zlaridan ham bilib olish mumkin: "Men tug'ilgan joyim Tanja shahrini 725-hijriy yilda, Ollahning rajab oyi ikkinchi payshanbasida (1325 yil 14 iyun) tark etdim... bu paytda 22 yoshda edim." Bu sanani "Sayohatnoma" muharriri Ibn Juzay al-Qalbiy ham tasdiqlaydi. U Garanadada Ibn Battuta bilan uchrashganida, Ibn Battuta o'zining 703-hijriy yil rajab oyining 17-sanasida, yakshanba kuni, ya'ni 1304 yil 24 fevralda Tanjada tug'ilganini aytganini yozadi.

Ibn Battuta o'rta hol shahar fuqarosiga mansub oilada tug'ilgan. Uning otasi oddiy faqih (islom qonunshunosi) bo'lgan va o'g'liga keng bilim olish imkonini berish uchun yetarli mablag'ga ega emas edi. Shu sababli, Ibn Battuta atoqli musulmon olimlarining va'zlarini tinglash niyatida, tavakkal qilib, yolg'iz holda Makkaga yo'l oladi. Yosh va mard sayyoh yayov holda Talimsanga yetib boradi va so'ngra Milina tomon yo'l olib, Tunis savdogarlari guruhiga qo'shib, ular bilan Jazoir orqali Bijayaga keladi. Bu yerda mahalliy amaldorlar va hukmdor noibining tazyiq va ta'qibiga uchrasa-da, sayyoh kasal bo'lib qolishiga qaramay, safarini davom ettirishga qaror qiladi.

Sayohatning dastlabki bosqichidayoq, Ibn Battutaning asosiy manfaatlari aniqlanib, keyingi sayohatlar davomida yanada yorqin namoyon bo'ladi. Bu, avvalo, insonlarning shaxsiyati va taqdiriga bo'lgan qiziqish, shaharlarning diqqatga sazovor joylari, me'morchilik va san'at obidalariga e'tiborni qamrab oladi. Ibn Battutani boshqa sayyohlardan ajratib turadigan ushbu xususiyatlar doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Masalan, polyak sharqshunosi A. Zayanchkovskiy Ibn Battuta sayohatlarini arab maqoli bilan ifodalash mumkin, deb hisoblaydi: "Avval qo'shni, so'ng hovli; avval yo'ldosh, keyin yo'l."

Ibn Battuta Qohiradan ziyoratchilar karvoni bilan Nil sohilidan Makka tomon yo'l oladi. Yo'l davomida Yuqori Misrning bir nechta shaharlarini tomosha qilib, Qizil dengiz bo'yidagi Ayzab portida to'xtaydi. Bu yerda ziyoratchilar kemaga o'tirib Jiddaga yo'l olishlari kerak edi, ammo buning imkoni bo'lmay, karvon yana Qohiraga qaytadi. 1326 yilning martida esa Ibn Battuta Suriyaga yo'l oladi. Damashqqa ketayotganida u Suriya va Livan shaharlarida, jumladan, Halab, Xoms, Hamot, Ma'arra, Bayrut, Quddus, Antioxiya, Latakiya, Tripoli shaharlarida bo'ladi. Damashqqa yetib kelgach, u yerda nomdor islom olimlari va faqihlarning va'zlarini tinglab, eng obro'li hadislar to'plami hisoblangan Imom Buxoriyning "As-Sahih" kitobidan dars berish huquqini qo'lga kiritadi.

Shunday qilib, yosh sayyoh kasalligiga qaramay, safarini davom ettiradi. Ko'p mashaqqatlar bilan Konstantina shahriga yetib borganda, u juda nochor va och-nahor holda edi. Shahar hokimi Abul Hasan unga rahmi kelib, ikki dinor va bir to'plam kiyim

ehson qiladi. Tunisda bir muddat yashab, mamlakatning qadimiy va me'moriy obidalari haqida batafsil ma'lumotlar yozib qoldirgach, Ibn Battuta yana yo'lga chiqadi. Susa orqali Sfaksga borib, u yerdan ziyoratchilar karvoniga qo'shiladi. Hijriy 726 yilning jumadil avval oyida (milodiy 1326 yil aprel) karvon Misrning Iskandariya shahriga yetib keladi. Bu yerda bir necha oy yashab, shayxu ulamolar bilan muloqotlari, musulmon va masihiylar to'qnashuvlariga oid voqealar, qo'rg'onlar, arxitektura yodgorliklari haqida ko'plab yozuvlar qoldiradi.

1326 yilning avgustida Ibn Battuta haj safariga o'tlanayotgan karvonga qo'shilib, vatandan chiqqaniga bir yil to'lgan kuni Makkaga yetib boradi. Muqaddas ziyoratning barcha odatlarini ado etib, "hoji" unvoniga ega bo'lgach, u Makkada bir muddat qolishga qaror qiladi. Makkadagi bu turarjoy hayoti uning keyingi safarlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Turli mamlakatlardan kelgan ziyoratchilar bilan muloqotda bo'lib, Ibn Battuta hali bilmagan ko'plab uzoq mamlakatlar haqida hikoyalarni qiziqish bilan tinglaydi.

Iskandariyadan Damiyettaga, so'ng Nil daryosi bo'ylab Qohiraga yo'l oladi. Misr poytaxtining serhasham va dabdabali ko'rinishidan zavqlangan Ibn Battuta bu yerda bir necha oy to'xtab, shaharning hayotini tasvirlaydi. Uning yozishicha, poytaxtning aylanasi "bir oylik yo'l"ga teng bo'lib, shahar ilmi va devona, boy va faqir, dono va nodon, kamtar va muttaham, pastkash va olijanob, xasis va saxiy odamlarning betinim oqimidan ummondek to'lqinlanib yotardi.

Sayyoh Qohira shahrini, uning masjid va madrasalarini, Misr ehromlarini, Nil daryosini batafsil tasvirlab, Misr hukmdori Mamluk Nasriddin va uning qozi, amaldor va sarkardalarining tarjimai hollari haqida yozib qoldiradi. Garchi Misrdagi mamluklar sulolasi davri haqida bizda ancha tarixiy ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Ibn Battutaning XIV asr birinchi yarmidagi Misr haqidagi yozuvlari o'zining xolis va sodda uslubi hamda o'ziga xos tafsilotlari (masalan, Misrdagi soliqlar miqdori uni hayratga solgani) bilan alohida e'tiborga sazovordir. Sayyoh Oltin O'rda poytaxtida bir necha hafta bo'lib, 1338 yilning yanvarida O'rta Osiyoning shimoliy hududlari – Xorazmga yo'l oladi. Unga ko'ra, "qirq kun" yo'l bosib, nihoyat Xorazm poytaxti Urganchga yetib keladi. Ushbu o'lka o'zining tabiiy boyliklari va keng savdo-sotiq hajmi bilan sayyohni hayratda qoldiradi. O'rta asrlardagi Xorazm tasvirlari ko'pincha arab geografik asarlarida uchraydi. Masalan, IX asr olimi Ibn Xurdodbeh o'zining "Kitob al-masalik val-mamalik" ("Yo'llar va davlatlar kitobi") asarida Xorazm joylashuvi haqida shunday yozadi: "Chapda (chap sohilida) – Marv va Xorazm joylashgan." Kitobda o'sha davrda Xorazm va Kurdakdan olinadigan soliqlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi: "Xorazm bilan Kurdakdan – 498 ming Xorazm dirhami."

XII-XIII asrlardagi mashhur "Mo'jam al-buldan" ("Mamlakatlar lug'ati") geografik lug'atining muallifi Yoqut al-Hamaviy Xorazm haqida Ibn al-Kalbiydan olingan afsonani keltirib, keyinchalik Ptolomeyni manba sifatida eslaydi va Xorazmni

“oltinchi iqlimga” joylashgan deb aytib, unga mos yulduzlar burjini ataydi. Biroq, biroz o‘tib, Abu Rayhon Beruniyning “Zij”iga tayanib, Xorazmning “beshinchi iqlim”da joylashganini ta’kidlaydi va ancha boshqacha koordinatalarni keltiradi.

Yoqut al-Hamaviy Xorazmning aslida shahar emas, viloyat nomi ekanini ta’kidlab, uning poytaxtini Jurjoniya deb ataydi va keyinchalik Xorazm so‘zining etimologiyasini tushuntiradi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu yerning Xorazm deb atalishi sababli bir qadimgi podshoh o‘zining to‘rt yuz nafar fuqarosiga, ayniqsa saroy ahliga darg‘azab bo‘lib, ularni odam yashaydigan joylardan yuz farsah uzoqlikdagi yerlarga surgun qilgan ekan. Bu talablarga mos joy faqat Xorazmdagi Qiyatning atrofida bo‘lgan. Quvg‘indilar shu yerga olib kelinib, tashlab ketilgan. Vaqt o‘tib, podshoh ularni eslab, amaldorlariga buyuribdi: “Bilinglar, ular nima bo‘ldi ekan?”

Ibn Xurdodbeh asarida Xorazm hukmdorining unvoni, Jayhun daryosining Xorazm yerlaridan oqib o‘tishi, shuningdek, Xuroson viloyatlari va Xorazmning chegara hududlari haqida ham eslatmalar bor. Xorazmning batafsil tasviri X asr geograf olimi Ibn al-Faqihning “Kitob al-Buldan” (“Mamlakatlar haqida kitob”) asarida uchraydi. Bu asardagi tasvirlar anchayin rang-barang bo‘lib, muallif Xorazm mo‘ynalari haqida she‘r keltiradi, Xorazmda qadimgi otashparastlarning yashaganini qayd etadi va Kaspiy dengizidan Xorazmgacha tutash cho‘llar haqida hikoya qiladi. Ibn al-Faqih xalifa huzurida turli mamlakat xalqlarini ta’riflagan bir donishmandning so‘zlarini ham keltiradi. Xorazmliklar haqida donishmand shunday degan: “Ular hech qachon bosh egmaydigan, fidoyilikka moyil kishilardir...”

Ibn al-Faqih Xorazmni eng sovuq iqlimga ega uch o‘lkaning biri deb hisoblaydi.

Shundan keyin Yoqut al-Hamaviy Xorazm va uning poytaxtini, xalqning urf-odatlari va tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Xorazmliklarning kelib chiqishiga alohida e’tibor qaratib, Abdulloh al-Faqih, al-Muqaddasiy, al-Beruniy va boshqa ko‘plab olimlarning fikrlarini dalil sifatida keltiradi. Xorazm poytaxti Urganch haqida u shunday yozadi: “Xorazm — shahar nomi emas, balki o‘lkaning umumiy ismidir. Poytaxtni esa yuqorida aytganimdek, Jurjoniya deb atashadi. Mahalliy aholi uni Kurkanj deb ataydi. Kurkanj nomi arab yozuvidagi ‘Gurganch’ning o‘ziga xos o‘qilishidan kelib chiqqan.”

Yoqut al-Hamaviy shahar tarixidan so‘zlab, xorazmliklar haqida quyidagicha ta’rif beradi: “Bu o‘lkada ular turar joylar va saroylar qurishgan, aholi ko‘payib, keng hududlarga tarqalgan. Shahar va qishloqlarni barpo etishgan. Xurosonning yaqin-yiroq shaharlaridagi aholi xorazmliklar bilan hisoblashadigan bo‘lib, ko‘pchilik u yerga ko‘chib kela boshlagan. Shu tariqa, Xorazm xalqi ko‘payib, nom chiqaradi va Xorazm gullab-yashnagan, go‘zal o‘lkaga aylanadi. Men u yerga 616 yili (1219–1220 y.) borgan edim va hech qayerda bunday gavjum va obod o‘lkani ko‘rmaganman. Ekinlar yoppasiga parvarish qilingan, qishloqlar ketma-ket joylashgan, hovli-chorbog‘lar ko‘p, hatto dashtda ham chorbog‘lar mavjud. O‘lka qishloqlarida parvarish qilinmagan,

noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa gujum va tut daraxtlari ko‘p, chunki ular qurilish yog‘ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurti uchun yemdor. Qishloqdan o‘tgan odam bilan bozordagi odamni ajratib bo‘lmaydi... Xorazmning deyarli barcha shaharlarida mol-tovar bilan boy do‘kon va rastali bozorlari bor, bozori bo‘lmagan qishloqni topish juda qiyin.”

Hozirgi arxeologik qazilmalar Yoqut al-Hamaviyning Xorazm haqida keltirgan ma’lumotlarini tasdiqlaydi. Sayyoh XIII asrning yigirmanchi yillarida Xorazmga kelganida, bu yerda ishlab chiqarish va madaniyat haqiqatan ham yuqori darajada bo‘lgan. Xorazm haqida o‘zining “Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur” (“Temur sarguzashtlarida taqdir mo‘jizalari”) asarida Ibn Arabshoh (1389–1450) ham hikoya qiladi: “Ularning (xorazmliklarning) poytaxti Jurjon shahri... bu olim va suxandonlarning yig‘iladigan joyi, u yerda olimlar va zukkolar, shoirlar to‘planadi, zariflar va taniqli shaxslar kelib turadi. Bu joy mutaziliylarning tog‘ chashmasidir... Unda noz-ne‘matlar mo‘l, ezguliklar behisob.”

Ibn Battutaning zamondoshi al-Umariy ham “Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar” asarida Xorazmni tasvirlab, bu yerda o‘stiriladigan barcha don ekinlari, ishlab chiqariladigan mollar va tovarlarni sanaydi. Shuningdek, Mavrounnahr va Xorazmdagi pul munosabatlari, narx-navo hamda Urganch haqida hikoya qiladi va odamlarning xulq-atvorini sinchiklab ta’riflaydi: “Bu o‘lkada bug‘doy, arpa, sholi va boshqa don ekinlari o‘sadi...” deb ta’kidlagan edi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asr sayyoh olimlarining asarlarida Xorazmning boy merosi va madaniy obidalari, tabiiy boyliklari, iqtisodiy ahvolining tasviri mufassal keltirilgan. Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Battuta va al-Umariy kabi olimlar asarlarida Xorazm haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar yozib qoldirilgan bo‘lib, ularning sayohatlari orqali bugungi kunda bizga Xorazmning o‘sha davrdagi yuksak savdo va madaniy hayoti, xalqning urf-odatlarini haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Battuta, I. (1958). *Travels* (Vol. 2, p. 425). University Press.
2. Sherzovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.
3. Sherzovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
4. Sherzovich, M. B. (2024). INDUSTRIAL MEASURES IN UZBEKISTAN 1925-1954 AND THEIR RESULTS (in the case of Kashkadarya and Surkhandarya regions). *World scientific research journal*, 24(1), 195-200.
5. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yu). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

6. Asadova, R. B. (2024). O ‘ZBEKISTON VA HINDISTON MUNOSABATLARI: TA’LIM VA MADANIYAT SOHASIDAGI AMALIY HAMKORLIK. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 26-32.
7. Baymanovna, A. R., & Isxoq oqli, Q. M. (2024). O ‘ZBEKISTON BILAN HINDISTON O ‘RTASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 31-34.
8. Baymanovna, A. R., & Eshqobil oqli, M. B. (2024). ESTABLISHMENT OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN STATES AND ITS HISTORICAL BACKGROUND. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 40(5), 27-30.
9. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO ‘ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.
10. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.
11. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.
12. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO ‘ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.
13. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARINING O ‘RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.
14. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
15. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA’NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
16. Ergashev, U. Q. (2024). IMPORTANT INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF THE GUZOR KINGDOM OF THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE EXAMPLE OF GULSHAN'S BOOK “THE HISTORY OF HUMOYUN”). *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 74-79.
17. Ergashev, U. Q. (2024). INFORMATION ABOUT THE VILLAGES OF THE INHABITANTS OF THE GUZOR STATION OF THE EMIRATE OF BUKHARA BY AMLOK (late 19th–early 20th centuries). *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(10), 265-270.
18. Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(12), 131-135.
19. Esonova, N. (2024). O ‘ZBEKISTONDA SANOAT RIVOJLANISHI TARIXINING MUSTAQILLIK DAVRIDA O ‘RGANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 19-22.
20. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
21. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.

22. Ochilova, N. R., Elboeva, S. B., & Buriev, I. I. (2021). ISSUES OF FORMATION OF UNIVERSAL VALUES IN THE DEVILMENT OF NATIONAL CULTURAL CENTERS. *Scientific progress*, 2(2), 496-500.
23. Ochilova, N. R. (2023). Typology of civilizations. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 121-127.
24. Ruzimuratovna, O. N. (2024). A New Renaissance: the Role of Youth in Shaping Consciousness and Thinking. *Gospodarka i Innowacje.*, 52, 113-115.
25. Sharopova, N. (2023). QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH TADBIRLARI VA ULARNING NATIJASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 518-522.
26. Akbarovna, S. N. (2024). THE ESTABLISHMENT OF SCIENCE OLYMPIADS IN SECONDARY SCHOOLS: THE EFFECT OF REFORM AND ANALYSIS. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 2(4), 33-35.
27. Akbarovna, S. N. (2024). FIVE INITIATIVES AND ITS IMPLEMENTATION IN SECONDARY SCHOOLS. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(6), 11-12.
28. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
29. Murtazova, S., & Ashurov, N. ABU MUIN AN-NASAFI-THE CONTINUATOR OF THE DOCTRINE OF MOTURUDIYA.
30. Buriyevna, M. S., & Sherozovich, M. B. THE FACTOR OF ISLAM RELIGION FOR ENSURING PEACE AMONG CONFESSIONS (USING THE EXAMPLE UZBEKISTAN EXPERIENCE).
31. Suyunovna, J. S. (2024). SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTABLAR VA ULARNING FAOLİYATI. *Modern education and development*, 16(5), 239-249.
32. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.
33. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
34. Ahmedova, D. S. D. (2024). CHANGES IN THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUTH: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(11), 70-75.
35. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.
36. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.